



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/12**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



**№12/2023**  
**DEKABR (1)**

**Muassis:**  
 Buxoro davlat universiteti  
 Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov  
 Bahodir Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
 Xamidov Obidjon Xafizovich,  
 Buxoro davlat universiteti  
 rektori

**Mas'ul kotib:** Akramova  
 Gulbahor Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov  
 Ismoil Ergashevich

**Tahririyat manzili:**  
 Buxoro shahar,  
 Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
 eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
 www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining  
 2021 yil 30 sentyabrda  
 306/6-son Qarori bilan  
**PEDAGOGIKA,**  
**PSIXOLOGIYA,**  
**FILOLOGIYA, TARIX**  
**FANLARI** bo'yicha falsafa  
 doktori (PhD) va fan doktori  
 (DSc) ilmiy darajasiga  
 talabgorlarning dissertatsiya  
 ishlari yuzasidan asosiy  
 ilmiy natijalarini chop etish  
 tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
 ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:  
 15.12.2023 y.  
 Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
 b/t.12,5.

Buyurtma raqami 1.23  
 «FAN VA TA'LIM»  
 nashriyotida chop etildi.  
 Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305  
 raqami bilan O'zbekiston  
 Ommaviy axborot vositalari  
 davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi  
 va 2 oyda 1 marta chop etildi.  
 2021 yil noyabr oyidan  
 boshlab har oyda 1 marta  
 o'zbek, rus va ingliz tillarida  
 chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion  
 tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-  
 metodik jurnalidan ko'chirib  
 bosish tahririyatning roziligi  
 bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan  
 faktlarning  
 to'g'riligi uchun muallif  
 mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Aхметов Д. Д. Тарих дарсларида мустақил таълим топшириқлари устида ишлаш	7
Ахатов Л. К. Фалсафий - ахлоқий қарашлар таҳлили – тасаввуф, сўфий ва ИЛМ ТИМСОЛИ	13
Ержанова Г. М. Тарих ўқитишда ўқувчиларни мантикий фикрлашга ўргатувчи ўқув топшириқлардан амалиётда фойдаланиш	17
Ганиев С. Т. Олий таълимда миллий тарихни ўқитиш орқали талабаларда мустақил ишлаш кўникмасини ривожлантириш усуллари	22
Iskandarov Sh. N. So'ngi amir said olimxonning afg'onistondagi muhojirligi	26
Miraxmedova Sh. N. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kitobxonlik madaniyati	30
Nasirov B. U. Umumiy ovqatlanish tizimi faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar va ularning aholi turmush tarziga ta'siri. (xix asr oxiri- xx asr boshlarida o'zbekiston misolida)	34
Norinov M.R. Namangan madaniy haqiqatida muzeylarning o'rni (namangan o'lkashunoslik va madaniyat muzeyi misolida)	38
Norqo'chqarov X. E. Afg'onistonda o'zbek tilining qonuniy asoslanishi, o'zbeklar ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni (XX asr – XXI asr boshlari)	41
Xamrokulova Sh. Sh. Qozoq xonligining shakllanish tarixi.	49
Yo'ldashev U. X. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti	53
Yunusxo'jayev H. Z. G'arb olimlari asarlarida ijtimoiy davlatchilik tarixining yoritilishi.	59
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Abdullayeva X. N. Sehrli ertaklarda g'ayrioddiy tug'ilish motivining o'ziga xos turlari va ulaning tahlili	62
Абдуллаева Р. Х. Лингвокультурный анализ паремий, характеризующих внешность человека в русской и узбекской пословичной картине мира	66
Adizova O. I. Topishmoqlarning ijtimoiy –madaniy o'ziga xosliklari	74
Amonov U. Mumtoz adabiyotimida tazkirachilik an'anasi	79
Axrorova M. A. XX asr boshlarida navoiy an'anasi	86
Azimov Yu. Yu. "Devoni foniy" da she'r va shoirlilik haqida	90
Бобо-Ходжаева А. Л. О лингвокультурном влиянии некоторых тюркизмов на современный русский язык	95
Hojiyeva G. S., Abduraximova M. D. Fransuz tilidagi san'at terminlari asosida yasalgan frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari	98
Икрамова Ш. Отражение социальных ролей в семантической структуре слов	101
Муртазаева Ф. Р. Типология женских образов и характеров в мировой «женской прозе»	106
Pardayev S. SH. Til madaniyatning aloqa tizimi sifatida	113
Suyunov R. S. Milliy gvardiya bo'linmalari shaxsiy tarkibini tarbiyalashdagi muammolari	117
Suleymanov T. Kh. The syntactical and lexical peculiarities of "Barn burning" by w. Faulkner	120
Sunnatov T. Qadimgi dunyo madaniyatida badiiy ijod namunalari	124
Tohirova Sh. Y. Fundamental steps for the development of lexical competence in english classes of non-philological higher education institutions based on case studies	128



Тошбекова Д. И., Вохидова Н. А. Тюркские заимствования в русском языке	132
Xodjayeva D. I. Jeyn ostining “pride and prejudice” romanida ayollar obrazi va gender masalalari	136
Xolmatov D. A. XX asr o'zbek hikoyalarida syujet va uning turlari.	141
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Ma'murov B. B. Pedagogika yo'nalishida OTM boshqaruv tizimlarida akmeologik yondashuvlar	146
Abdisodiqova M. N. Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning psixofiziologik asoslari	189
Abdurazzoqova F. Farg'ona vodiysi jadidchi ma'rifatparvarlarning pedagogik qarashlari asosida talabalarning milliy ma'naviyatini shakllantirishning Shart-sharoitlari	152
Abdurahmonova D. Sh. Umumta'lim maktablarida multimediali elektron vositalaridan foydalanishning pedagogik aspektlari	155
Alimova N. R. Features of individualization of foreign language teaching at a non-linguistic fields	160
Aslonov J. M. XX asrning 60-80-yillarida o'zbekistondagi Iqtisodiy hayot	163
Axatova D. A. Professional pedagogik faolliyatni o'qitishning Ilmiy - nazariy asoslari	167
Axatova X. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashning pedagogik – psixologik xususiyatlari	171
Axmedova Z. J. Maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari	173
Акрамова Ш. А. Бола ҳуқуқларини таъминлашда ижтимоий ҳамкорликнинг долзарб масалалари	178
Bakayeva R. I. Ona tili darslarida o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali funksional savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish	182
Bakiyeva H. S. Ismoilova M. T. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlashda – yangi bilimlarni yaxshi o'zlashtirish uchun tanaffusga strategik vosita sifatida yondashuv	186
Bakiyeva X. S. Egamqulova I. S. Bolalarning kreativ tafakkurini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning afzalliklari	189
Bekmuradova D. P. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda muammoli ta'limning o'rni	192
Боймирзаева Д. Д. Формирование социальной креативности у будущих менеджеров в сфере образования	195
Дайкеева А. О. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик компетентликни ривожлантириш хусусиятлари	199
Dilova N. G. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning ta'limiy-integrativ va tarbiyaviy-kreativ jarayon uyg'unligi	202
Doniyorova Sh. Sh. Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvida talabalarning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish	206
Isroilova Sh. A., Sayfullaeva D. I. Innovatsion yondashuv asosida talabalar kreativligini rivojlantirish xususiyatlari	209
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
Abdusamatov X. U. Bolada jinsiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologiya usullari	212
Adilova M. Maktab ta'limida ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning o'rni	217
Ahmadov Sh. R. O'smirlarning oilaviy hayot va undagi nizoli vaziyatlarga nisbatan ijtimoiy ustanovkalarini o'rganish natijalari	222
Alimardonov Z. Sh. Bo'lajak ofitserlarda muloqotchanlik xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari	225
Askarova N. A. Bolalarda psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omillarning o'rganilganligi	229
Ataxo'jayeva Sh. A. Ijtimoiy va hissiy kompetentlikning namoyon bo'lishi	232
Алламбергенова Б. Х. Дуйсенбаева нилуфар рашидовна Социально-педагогические особенности изучения английского языка инновационными методами	236
Arzimbetov T. T. Sport jamoalarida yuzaga keladigan salbiy emotsional kechinmalarni psixologik xizmat ko'rsatish orqali bartaraf etilishi	240
Абилова Г. У. Педагогические возможности информационной образовательной среды при организации вебинаров	244
Azimov N. N., To'xtayev M. H. Umumta'lim maktabi jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va psixologik tayyorgarligida harakatli o'yinlarning ta'siri va samaradorligi	248
Begmanova G. Sh. Seytpenbetov iqilas janaxmed o'g'li Globallashuv sharoitida o'smirlarni manipulyatsion ta'sirlardan himoyalashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	254
Bekmirov T. R. Onalardagi nevroitik holatlar va bolalardagi yosh inqirozlarining xorij adabiyotlaridagi metodologik tahlili	259

Kishanlar birla do‘stlashding?  
 Na faryoding, na doding bor,  
 Nechun sen muncha sustlashding?  
 Haqorat dilni og‘ritmas,  
 Tubanlik mangu ketmasmi?  
 Kishanlar parchalanmasmi?  
 Qilichlar endi sinmasmi?  
 Tiriksan, o‘lmagansan,  
 Sen-da odam, sen-da insonsan.  
 Kishan kiyma,  
 Bo‘yin egma,  
 Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsan![6]

Cho‘lpon nafaqat o‘z ko‘ngliga, balki o‘ziga o‘xshagan erksiz yuraklarga qaratib aytgan edi. U ko‘ngilni nega kishanlar bilan do‘stlashganini, mana shunday qullikka rozi bo‘lib qanday yashashini so‘raydi. Haqorat, tubanlikka guvoh bo‘lgan, unga faryod bilan javob bermagan ko‘ngilning bedorligini, tirikligini eslatadi. Har bir tug‘ilgan banda qullikda emas, hurlikda tug‘ilganligini yodiga keltiradi. Ikki davrning buyuk ijodkorlarida bir xil “ko‘ngil” obrazini ko‘rishimiz mumkin. Ammo ko‘ngilni iki davr vakili ikki xil tarzda, ya‘ni har bir ijodkor o‘z davriga munosib ravishda talqin qiladi. Navoiy mumtoz adabiyoti vakillari kabi majoziy ishq orqali ilohiy ishqni aks ettirib, unga qul bo‘lgan firoq o‘tiga qolishini aytsa, Cho‘lpon jadid namoyandalari kabi xalqni uyg‘otishga zulmga qarshi kurashishga da‘vat qiladi.

Mana shulardan ko‘rib aytish mumkinki, adabiyot hech qachon e‘tiborsiz bo‘lmagan, hamma davrda ham, hamma joyda ham siyosiy hayot adabiy asarlarda yaqoqol namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000.

Alisher Navoiy Xamsa. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2010. 348 b.

Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, “O‘qituvchi” 1992-yil, 10-bet.

Vahdud Mahmud Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida, “Zarafshon” gazetasi, 1924-yil, 21-son.

Cho‘lpon. Tong sirlari. Toshkent, 1922-yil, 7-avgust.

N. Yuldashev, A. Arslonov. Alisher Navoiyning Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodiga ta‘siri, Alisher Navoiy adabiy-ilmiy me‘rosini o‘rganish. Konferensiya materiallari. 2023-yil, 4-son.

Homil Yoqub Cho‘lpon va Navoiy, Toshkent, “Sharq” 1997-yil.

## “DEVONI FONIY”DA SHE’R VA SHOIRLIK HAQIDA

Azimov Yunus Yusupovich

Filologiya fanlari nomzodi, Buxoro davlat universiteti dotsenti

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy (Foiniy)ning “Devoni Foni” asarida shoirning she’r yozish san’ati hamda shoirlik xislatlari borasidagi fikr mulohazalari chuqur tahlilga tortilgan. Navoiy (Foiniy)ning she’ru shoirlik borasidagi o’ziga xos adabiy-nazariy qarashlari va adabiyotshunos sifatidagi mulohazalari she’riy parchalar yordamida ochib berilgan.*

*Kalit so’zlar: zullisonayn shoir, “Muhokamat ul-lug’atayn”, muqattaot, ruboiyot, masnaviy, ta’rix, lug’az, muammo, avroq, she’r, shoirlik, g’azal janri, sohir qalam, adabiy-nazariy qarashlar, tatabbu’ qilish, javobiya asarlar, yaxshi va yomon she’r, she’rning vazifalari, talabchan ijodkor.*

### В «ДЕВОНИ ФОНИЙ» О ПОЭТЕ И ПОЭЗИИ

*Аннотация. В данной статье произведение Алишера Навои (Фоний) «Девони Фоний» содержит глубокий анализ мыслей поэта об искусстве написания стихов и качествах поэзии. С помощью поэтических фрагментов раскрываются уникальные литературно-теоретические взгляды Навои (Фоний) на поэзию и его комментарии как литературного критика.*

*Ключевые слова: поэт зуллisonайн (билингвист), «Мухокамат ул-лугатайн», муқаттаат, рубаят, маснави, история, лексика, проблема, аврак, стихотворение, поэзия, жанр газели, волшебник пера, литературно-теоретические взгляды, исследование, реторты, хорошая и плохая поэзия, задачи поэзии, требовательный творец.*

### IN «DEVONY PHONIA» ABOUT THE POET AND POETRY

*Annotation. In this article, the work of Alisher Navoi (Foiniy) “Devoni Foiniy” contains a deep analysis of the poet’s thoughts about the art of writing poetry and the qualities of poetry. With the help of poetic fragments, the unique literary and theoretical views of Navoi (Foiniy) on poetry and his comments as a literary critic are revealed.*

*Key words: poet zullisonain (bilingualist), “Mukhokamat ul-lughatain”, muqattaat, rubayat, masnavi, history, vocabulary, problem, avrak, poem, poetry, ghazal genre, wizard of the pen, literary theoretical views, research, retorts, good and bad poetry, tasks of poetry, demanding creator.*

Kirish. Alisher Navoiy o’z zamonasidayoq o’zbek va fors-tojik adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo’shgan buyuk sohir qalam sohibi, mutafakkir va zullisonayn shoir sifatida shuhrat qozongan edi. Buyuk ijodkor umrining oxirida o’z muxlislariga tuhfa etgan asar – “Muhokamat - ul - lug’atayn” o’zining ilmiy mulohazalarga boyligi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka doir ko’pgina dolzarb masalalarni o’z ichida qamrab olganligi bilan diqqatga sazovordir. Unda hazrat Navoiyning til va tafakkur, badiiy adabiyot va uning turli jilolari borasidagi qimmatli fikr - mulohazalari o’ziga xos tarzda ifodasini topgan. Muallif fors - tojik va o’zbek tillarini bir-biri bilan solishtirar ekan, xolisona muhokama yuritadi hamda dalillarga asoslangan xulosalarini o’rtaga tashlaydi.

Asarda muallifning o’z ijodi va sohir qalami to’lqin etgan badiiy-ilmiy yaratmalariga munosabati ham berilgan. Buyuk shoir o’zining “G’aroib – us - sig’ar”, “Navodir – ush – shabob”, “Badoe – ul – vasat”, “Favoid – ul – kibar” (“Xazoyin – ul – maoniy”), “Xamsa”, “Nasoim – ul – muhabbat”, “Lison – ut – tayr”, “Mezon – ul – avzon” kabi asarlarini faxr ila tilga oladi. Ular haqida ajoyib va qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. So’ngra fors-tojik adabiyotining o’z ijodida tutgan o’rni haqida chuqur mulohaza yuritir ekan, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi buyuk so’z san’atkorlari hamda ularning asarlari zikrini ehtirom ila keltirib, quyidagilarni ta’kidlaydi: «Barchasiga ko’p qatla o’qupmen, balki ko’pni yod tutupmen va qasoyid va g’azalliyotlarining g’arib va latofatin bilibmen, balki garibroq va latifroglariga tatabbu’ dag’i qilibmen» [1:122].

Tahlil va natijalar. “Muhokamat – ul – lug’atayn”da shoirning fors-tojik tiliga bo’lgan munosabati ham o’zining yorqin ifodasini topgan. Hazrat Navoiyning e’tiroficha, u o’z ilk ijodiy yo’lini forsiyda boshlab, umrining oxirigacha ushbu tilga katta ehtirom va samimiyat ila munosabatda bo’ldi va unga chin dildan sadoqat saqladi. “Muhokamat – ul - lug’atayn”da hazrat Navoiyning fors - tojik tilida yaratgan asarlari, ayniqsa uning “Devoni Foiniy” to’plami sharhiga katta o’rin berilgan. Yuqoridagi iqtibosda ko’rganimizdek, Alisher Navoiy Xusrav Dehlaviy, Mavlono Jomiy, Xoqoniy va Anvari qasidalariga hamda Xoja Salmonning quyida keltiriladigan mashhur matlasiga

Safoi safvati ro’yat birext obi bahor,  
Havo channati ko’yat bubext mushki tator [1;124]

qilgan tatabbulari haqida o'ziga xos tarzda fikr yuritadi. O'sha qasidalarining to'liq nomi va matlalarini keltirib, qisqacha bo'lsa-da, o'z munosabatini bildiradi.

U "Muhokamat – ul - lug'atayn" asarida forsiy tildagi asarlari borasida mufassal to'xtalib o'tar ekan, ularning miqdori, tarkibi, mavzular doirasi, janriy xususiyatlari to'g'risida ham keng ma'lumot berib o'tadi. Asarda "Devoni Foni" tartibi haqida ma'lumot berib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Va anda ("Devoni Foni"da - Yu.A.) har nav' nazm asnofidin, misli: muqattaot va ruboiyot va masnaviy va ta'rix va lug'az va ul jumladan besh yuzga yaqin muammokim,... xomamdin ro'zg'or safhasig'a yozilibdur va qalamim layl va nahor avroqida naqsh qilibdur" [1: 125].

"Devoni Foni" ("Foni devoni") asari sohirqalam shoir Alisher Navoiyning Foni taxallusi bilan forsiy tilda yozgan she'riy asarlari majmuasi hisoblanadi. Navoiy (Foni) bu devonini umrining so'nggi yillarida, taxminan 1492-1498 yillar orasida tuzgan. Ulug' shoir "Muhokamat – ul - lug'atayn" asarida o'zining forsiy tildagi she'rlaridan Xoja Hofiz Sheroziy devoniga o'xshatib ("Xoja Hofiz tavridda") devon tuzganini ma'lum qilarkan, shunday deydi: «Yana forsiy g'azaliyot Xoja Hofiz tavriddakim, jame' suxanadolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu'dir, tartib beribmenkim, olti mingdan ab'yoti adadi ("baytlar miqdori") ko'prakdurki, ko'prak ul hazratu (Xoja Hofiz) she'riga tatabbu' voqe' bo'lubdur".

"Devoni Foni"dagi she'rlarning katta qismini Navoiy salafarlari va zamondoshlarining g'azallariga yozilgan tatabbular tashkil etadi. 554 g'azaldan 237 tasi Hofiz Sheroziy, 52 tasi Abdurahmon Jomiy, 33 tasi Xusrav Dehlaviy, 25 tasi Sa'diy Sheroziy, 5 tasi Mavlono Kotibiy, 5 tasi Mavlono Shohiy, 4 tasi Kamol Xo'jandiy va boshqa shoirlarning g'azallariga bog'langan. Bunda eng ko'p g'azal Hofiz Sheroziy g'azallariga bog'langani va uning she'rlaridan ilhomlanib yozilgani Navoiyning bu buyuk iste'dod egasiga ixlosi yuksak bo'lganidan dalolat beradi. "Devoni Foni"dan Navoiy (Foni)ning o'z original gazallari ham o'rin olgan. Shoir ularni "Muxtara", "Ixtiro" deb atab, shu yo'sinda tatabbulardan ajratib ko'rsatgan.

"Devoni Foni" asaridan o'rin olgan bir qator g'azallarni M. Muinzoda, A. Hayitmetov va boshqalar o'zbek tiliga mohirona tarjima qilishgan. "Devoni Foni"ni birinchilardan bo'lib ilmiy o'rganish ishiga ustod Sadridin Ayniy, Hamid Sulaymon, Shoislom Shomuhamedov, Natan Mallaev, Ergash Shodiev, Ali Muhammadiy kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar. "Devoni Foni"ning qadimiy qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ular chet el qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Jumladan, ikkitasi Fransuz Milliy kutubxonasida, yana ikkitasi Turk islom muzeyi kutubxonasida va «Nuri Usmoniya» kutubxonasi (Turkiya)da, yana biri Tehrondagi Eron Davlat majlisi kutubxonasida saqlanadi. Bu qulyozmalarning aksariyati Navoiy hayotligida ko'chirilgan, ulardan mukammal va to'lig'i Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan nusxadir. Unda 554 g'azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit'a, 73 ruboiy, 16 tarix, 373 muammo, 9 lug'z (she'riy topishmoq) - jami 1131 she'r bo'lib, 6197 baytni tashkil etadi. Ushbu devonni O'zbekistonda ilk bor professor Hamid Sulaymonov nashrga tayyorlagan (Alisher Navoiy, Asarlar [15 jildli], T., 1965, 5-j.).

"Muhokamat ul-lug'atayn"da g'azal janridan keyin qit'aning tilga olinishi ham besabab emas, albatta. Shoirning fors-tojik tilidagi muqattaotining miqdori "Devoni Foni"ning qo'lyozma va nashrlarida turlicha. Bu hol qo'yidagi jadvalda yaqqol ko'zga tashlanadi:

№	Qo'lyozma va nashrlar	Miqdori
1.	1952 raqamli (Turkiya) qo'lyozma	36 ta
2.	3850 raqamli (Turkiya) qo'lyozma	34 ta
3.	1502 raqamli (Tehron) qo'lyozma	36 ta
4.	285 va 1345 raqamli (Parij) qo'lyozma	36 ta
5.	Fonī, Amir Alisher. Devoni forsī (Muntaxab). Murattib va muallifi sarsuxan Ali Muhammadī . -Dushanbe, Irfon, 1993. -320 sah.	30 ta
6.	Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 5-tom (II kitob): "Devoni Foni". - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.	47 ta
7.	Devoni Amir Nizomiddin Alisher Navoiy - Fonī. Bo sa'yu i'htimomi Rukniddin Humoyun Farrux. Chopi avval. Tehron , 1963	32 ta

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Parij milliy kutubxonasidagi 285 va 1345-inventar raqamlari ostida saqlanuvchi



“Devoni Foni”ning qo‘lyozmalarida qit‘aning miqdori ancha ko‘p.

“Devoni Foni” tarkibidagi muqattaotda ixcham, teran mazmunli va milliy ruhda yaratilgan, pokiza axloqni vasf etuvchi hikmatli so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Ularni mutolaa qilar ekanmiz, ayni damda, ya‘ni istiqloqlga erishgan davrimizda ham ular o‘z mohiyat-mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini yuqotmaganiga yana bir karra shohid bo‘lamiz. Shoir shoir qalami ila bir rishtaga marjonday terilgan axloqiy duru gavharlar zamonamizga hamohang bo‘lib, yoshlarni javonmardlik, saxovatpeshalik, bohayolik, vafodorlik, ilmga chanqoqlik hamda hayotga teranroq boqish kabi ezgu qadriyatlar sohibi bo‘lishga da‘vat etadi.

Alisher Navoiy - Foni yoshlarni ilm o‘rganish, bilim to‘plashga da‘vat etar ekan, bu borada, birinchi navbatda, izlanuvchan, tirishqoq va kitobsevar bo‘lishni tavsiya etadi. Uning ta‘kidlashicha, kitob insonning eng yaqin do‘sti va yagona mahbubidir. Uni birovdan oriyatga olib bo‘lmas, chunki u munisu g‘amxo‘r yor kabi hamisha yoningda va bag‘ringda bo‘lmog‘i darkor:

Kitob on ast, ki az kas oriyat just,  
Makun, z-ahli xirad digar shumorash.  
Ki hast on munisu mahbub kasro,  
Gahe andar bag‘al, gah dar kanorash [3: 315].

(Mazmuni: Kimki kitobni birovdan vaqtinchalik o‘qish uchun olsa, uni xirad ahlidan hisoblama. Chunki kitob insonga munisu mahbub bo‘lib, sevimli yor kabi gohida yonida, gohida og‘ushida bo‘lmog‘i lozim).

“Devoni Foni” muqattaotida shoirning adabiy-nazariy qarashlari va adabiyotshunos sifatidagi mulohazalari ham o‘z ifodasini topgan. Shoir o‘zining ba‘zi qit‘alarida fors-tojik tilida yaratgan asarlari va unga taalluqli masalalar borasida so‘z yuritib, zullisonayn ijodkor ekanligi va har ikkala xalqqa birday xizmat qilayotganidan xolisona hamda kamtarlik ila faxrlanadi. Darhaqiqat, buyuk mutafakkir va so‘z olamining mohir ustasi shoir qalami tuhfa etgan forsiy tildagi asarlari ham uning turkiy tildagi durdonalari qatorida xalq orasida marg‘ub va ma‘ruf edi. Shoir buni bilar va haqli ravishda faxrlanardi. Qo‘yidagi qit‘ada ham shu mazmun qalamga olingan:

Ma‘nii shirinu ranginam ba turki behad ast,  
Forsi ham la‘lu durhoi simin chun bingari.  
Go‘iyo dar rost bozori suxan bikshodaam,  
Yak taraf do‘koni qannodiyu yak so‘ zargari.  
Z-in do‘konho har gado kolo kujo donad xarid,  
Z-on boshad ag‘niyo in naqdhoro mushtari [3: 312].

(Mazmuni: Rang - barang va shirin ma‘noli she‘rlarim turkiyda behaddir. Agar yaxshiroq qarasang, forsiy tilda yaratgan ash‘orim ham bebaho la‘lu gavhardir. Go‘yoki o‘ngda so‘z bozori ochganman, bir tarafda esa qandolat, ikkinchi tarafda zargarlik do‘konlari. Bu do‘konlardan har qanday gado ham mato xarid qilolmaydi, chunki bu naqdlarni xarid qiluvchi mushtariylar juda ko‘pdir).

Bu borada Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham mufassal to‘xtalib o‘tadi. U forsiy tilda yaratgan ash‘ori xususida so‘z yuritib, u uchun forsiy til ham ona tili - turkiyday qadrli ekanligini ta‘kidlaydi va faxr ila shunday yozadi: «...Forsiy alfoz istifosin va ul iborat istiqsosin kishi mendin ko‘prak qilmaydur erkin va saloh va fasodin mendin yaxshiroq bilmaydur” [1:121]. Ta‘kidlarimiz va iqtibosdan ayonlashadiki, shoir forsiy tildagi asarlariga mas‘uliyat bilan jiddiy munosabatda bo‘ladi, ularni turkiy ash‘oridan biror jihatdan past bo‘lishini xohlamaydi.

“Devoni Foni” tarkibidagi gazallarning asosiy qismi tatabbu‘ usulida yaratilganligi ilm ahliga yaxshi ayon. Bu ijodiy bellashuvda Alisher Navoiy - Foni katta muvaffaqiyatlarga erishganligi, o‘z yo‘li va maktabiga ega ekanligi ham haqiqatdir. Shoir bir qit‘asida bu borada shunday yozadi:

Tatabbo‘ kardani Foni dar ash‘or,  
Na az da‘viyu na az xudnamoist.  
Chu arbobi suxan sohibdilonand,  
Murodash az dari dilho gadoist [2: 395].

(Mazmuni: Foniyning shoirlar she‘riga tatabbu‘ qilishi biron da‘vo yoki o‘zini ko‘rsatish yuzasidan emas. So‘z arboblari sohibdildurlar, mening murodim esa dillar eshigida gadolik qilishdir).

Foniyning “murodim dillar eshigida gadolik qilish” deyishi ham uning kamtarligi va xoksorligining ulug‘vor namunasidir. U o‘zining fors-tojik she‘riyatidagi maqomi va iqtidorini yaxshi bilar va bundan faxrlanardi ham. Uning tatabbu‘lari esa javobiya asarlarning esa sara va eng mukammali ekanligi ham ayondir.

“Devoni Foni” muqattaotida she’r va shoirlik san’atiga ham munosabat bildirilgan. Foni shoirlikni faxrli va ayni damda juda mas’uliyatli mashg’ulot ekanligini ta’kidlaydi. Shuning uchun har bir she’ri puxta va mukammal chiqishini, odamlar e’tiboridan qolmasligini istaydi. U she’r va shoirlik haqida kuyunib gapirar ekan, so’z san’atkorlarining ash’orini dildan suyub, o’zining farzandiday yaxshi ko’rishini aytadi va niyat qiladiki, uning ash’ori ham odamlarga ma’qul bo’lsinu unga farzandlariday mehr qo’ysinlar:

She’ri man gar z-on ki dar ma’ni ba man farzand shud,  
Lek mahbubi man ast ash’ori marg’ubi kason.  
On chunon k-aftod farzandi kason mahbubi man,  
Chi buvad ar farzandi man ham gasht mahbubi kason [2: 396].

(Mazmuni: She’rlarim ma’no yuzasidan menga farzand bo’ldi, lekin boshqalarning yaxshi ash’ori menga mahbusdir. Odamlarning farzandi (she’rlari) mening mahbusim bo’lgani kabi mening farzandim (she’rlarim) ham odamlarning mahbusi bo’lsa edi).

Hassos shoir ta’kidlaridan sho’nday xulosa chiqarish mumkinki, she’rning biki ma’nosi farzand kabi aziz va mahbusdir. U shoirning qalbidan, uning eng sara va toza ehtirosu orzulari zamiridan otilib chiqadi va ro’shnolik yuzini ko’radi. Farzandi haqidagi samimiy so’zlar va iliqlik maqtovlari insonni qay darajada xursand qilsa, she’rlari borasida muxlislari tomonidan aytilgan e’tirofnomayu qutlovlar ham shoirni shu darajada shodu masrur etadi.

Foni boshqa qit’asida yana bir bor she’r va shoirlik masalasiga qaytar ekan, uni mushaxxasroq sharhlashga intiladi. U yaxshi va yomon she’r xususida so’z ocharkan, shuaro ijodini bir xil - hammasi a’lo darajada emasligini aytadi va shu bilan birga marg’ub - hammaga ma’qul bo’ladigan she’r aytish juda mushkul ekanligi, bu mas’uliyatli va zahmatalab ishning uddasidan hamma ijodkorlar ham chiqolmasligi, bu sharaf shoirlarning yuzdan biriga nasib etajagini aytadi:

Zi sar to po naboshad she’ri kas xub,  
Ki in mumkin naboshad hech kasro.  
Badu nek ar barobar hast bad nest,  
Base dorand in neko’ havasro.  
Zi bad gar neki o’ boshad ziyoda,  
Nadid az sad yake in dastrasro.  
Kalomi haq nayomad jumla yakson,  
Chi boshad nukta mushti xoru xasro [2: 404].

(Mazmuni: Insonning she’ri boshdan-oyoq yaxshi bo’lishi mushkul. Bu ish hech kimga muyassar bo’lmaydi. Uning yomon va yaxshi jihatlari barobar bo’lsa ham yomon emas. Buni ko’pchilik shoirlar havas qiladi. She’rning yomonidan yaxshisi ko’proq bo’lishini yuzdan bir kishi ham ko’rgan emas. Xudoning kalomi ham bir xil kelmadi, bizdek xoru xaslarga tenglikni kim qo’yibdi).

Foni she’r va shoirning xalq oldidagi vazifalari va mas’uliyatlari borasida chuqur mulohaza yuritadi, iqtidorli va ushbu mas’uliyatni yaxshi tushungan shoirlarni osmonlarga ko’tarib maqtaydi, ularni hurmat qilish va qadrlashga chaqiradi. Shoirning ta’kidicha she’r yaxshi va yomon odamlarga birday, xizmat qilishi – “neko’suraton” va “badsiraton” dilini betafriga g’am va anduhdan xoli qilmog’i lozim. Agar ushbu vazifa amalga ohsa, shoir maqsadiga erishgan hisoblanadi:

She’r xoli kardani dil gasht az ando’hu dard,  
Xoh az badsiraton, xoh zi neko’suraton.  
Dil chu xoli gasht qoyil ham ba maqsudash rasid,  
Da’vi in jo kay mahal dorad zi olihimmaton [2: 406].

(Mazmuni: She’r badsiyaratlar va neko’suratlar dilini anduh va darddan birday xalos kiladi. Dillar g’amdan xalos bo’lgandan so’ng shoir ham o’z maqsadiga yetadi. Bu da’vo oliyhimmatlilarning nazdida qachon mahol bo’lsin).

Mutafakkir shoir ta’kidlaridan ayonlashadiki, she’rning vazifalari najib bo’lib, u inson kamoloti yo’lida xolisona xizmat qiladi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Agar shoir she’rini xalq oldida istig’no bilan o’qisa, u yaxshi bo’lsa ham muxlislarga ma’qul bo’lishi. dargumon. Qaysi shoir ash’orim xalq nazdida maqtovg’a sazovor bo’ldi, deb da’vo qilsa, she’rlariday o’zi ham tez orada muxlislari nazaridan qoladi. Bu borada yana holdon shoirning qitalarini guvohlikka chaqiramiz:



Har nas, ki az ro'i istig'no ba mardum xond she'r,  
Nek ham gar hast sozad zisht peshi xalq besh.  
Da'vii maqbulii sher ar kunad sar to ba poy,  
Xeshtanro ham kunad mardud hamchun she'ri xesh [2: 404].

(Mazmuni: Kimki istig'no yuzasidan xalq oldida she'r o'qisa, yaxshi she'r bo'lsa ham, xalq nazdida yomon ko'rinadi. Agar shoir mening she'rim boshdan - oyoq yaxshi deb da'vo qilsa, o'zi ham she'riday tez xalq nazaridan qoladi).

Hazrat Alisher Navoiy o'z asarlarida zahmatkash, iste'dodli va xoksor so'z san'atkorlarini juda yuksak qadrlagan, shu bilan birga qobiliyatsiz, didi past, xudbin va maqtanchoq shoirtaroshlarni ayamasdan tanqid qilgan. Shunday mayl "Devoni Foni" tarkibidagi qit'alarda ham ko'zga tashlanadi. Durshunos shoir o'z she'rlarini boshqalar ash'oridan ortiq ko'radigan, o'zga ijodkorlar she'rlarini pastga uradigan shoirlarni insofu diyonatga chaqiradi. O'z hunaringni maqtayapsanmi, uni aksini – kamu ko'stini ham ko'ra bilgin, deya qo'yidagi hikmatomuz so'zlarni nazm rishtasiga tizib, o'quvchi hukmiga havola etadi:

Ey, ki nazmi suxanvaroni jahon,  
Mekuni nafiyyu she'ri xud tahsin.  
Nestand ahli donishu insof,  
Ki buvad inchuninashon oyin.  
Hunari xeshu aybi kas didi,  
Nesti ko'r aksi in ham bin [2: 400].

(Mazmuni: Ey, jahon so'z ustalari nazmini mensimay o'z she'rini maqtovchi kishi. Bu ishni o'ziga odat qilib olganlar ilm va insof aholidan emaslar. O'z hunaring va boshqalarning aybini ko'rding, ko'r emassan buning aksini ham ko'r).

Xulosa. Shunday qilib, "Devoni Foni" tarkibidagi qit'alar tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy - Foni forsiy muqattaotining katta bir qismi she'ru shoirlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, buyuk zullisonayn shoirning zabardast adabiyotshunos, zukko hamda talabchan ijodkor ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Uning she'ru shoirlik oldida qo'ygan talab - istaklari hamda fikr - mulohazalari ayni zamonda ham o'z qimmatini va ahamiyatini saqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. -Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 125-b.

Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 5-tom (II kitob): "Devoni Foni". -Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. 394-395-b.

Foni Amir Alisher. Devoni Forsi (Muntaxab). Murattib va muallifi sarsuxan Alii Muhammadi. - Dushanbe, "Irfon", 1993. 315-b.